



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 1-sentabr, № 180 (9075)

Dushanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



TYANSZIN SHAHRIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI TADBIRLARI BOSHLANDI



31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
rafiqasi bilan birga Tyanszin shahridagi
«Meyszyan» kongress
markazida Shanxay hamkorlik
tashkiloti sammitining norasmiy
tadbirlarida ishtirok etdi.

Tadbirlarda Xitoy Xalq
Respublikasi Raisi Si Szipin,
Rossiya Federatsiyasi
Prezidenti Vladimir Putin,
Belarus Respublikasi Prezidenti
Aleksandr Lukashenko, Hindiston
Respublikasi Bosh vaziri Narendra
Modi, Pokiston Islom Respublikasi
Bosh vaziri Shahboz Sharif, Eron
Islom Respublikasi Prezidenti
Mas'ud Pezeshkiyon, Qozog'iston
Respublikasi Prezidenti Qosim-
Jomart Toqayev, Qirg'iz
Respublikasi Prezidenti Sadir
Japarov, Tojikiston Respublikasi
Prezidenti Emomali Rahmon,
Turkiya Respublikasi Prezidenti
Rejep Tayyip Erdog'an,
Turkmaniston Prezidenti Serdar
Berdimuhamedov, Ozarbayjon

Respublikasi Prezidenti Ilhom
Aliyev, Mo'g'uliston Prezidenti
Uxnaagiyn Xurelsux, Misr,
Kambodja, Nepal, Armaniston
hukumatlari rahbarlari hamda
Birlashgan Millatlar Tashkiloti
Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham
qatnashdi.

Davlatimiz rahbari va rafiqasini
Xitoy Raisi Si Szipin va rafiqasi
samimiy kutib oldi.

Shundan so'ng xorijiy
yetakchilarga Shanxay hamkorlik
tashkilotining Tyanszin sammitiga
bag'ishlangan konsert dasturi
namoyish etildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot
xizmati surati.

SAMIMIY QUTLOVLAR

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va
hukumatlar, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari, taniqli siyosatchilar, jamoat va din arboblardan samimiy
qutlovlar kelmoqda.

Kelib tushayotgan maktublarda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar strategiyasining natijalari, mintaqada do'stlik, sheriklik va
yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash, dunyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan pragmatik va konstruktiv tashqi
siyosat yuqori baholanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida erishilgan yutuqlar, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi muvaffaqiyatlar, O'zbekistonning
xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotgani alohida qayd etilgan.

Ko'p millatli O'zbekiston xalqiga tinchlik-osoyshtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etilgan.



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Mamlakatingizning milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy
tabriklarimni qabul qilgaysiz.

O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi, jahon
maydonidagi nufuzi tobora ortib bormoqda, mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi
ko'plab muhim masalalarni hal etishga amaliy hissa qo'shmoqda.

Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida
jadal rivojlanmoqda. MDH, ShHT va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida
sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish yo'lga qo'yilgan.

Ishonchim komilki, biz bundan buyon ham Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi
o'zaro manfaatli aloqalarni barcha yo'nalishlarda har tomonlama rivojlantiramiz.
Bu do'st xalqlarimiz manfaatlariga, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni
mustahkamlash maqsadlariga to'la mos keladi.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sog'liq va muvaffaqiyatlar,
barcha yurtdoshlaringizga farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA

Hurmatli Prezident janoblari!

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Sizga va
do'st O'zbekiston xalqiga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etishga
ijozat bergaysiz.

Sizning rahbarligingizda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda, xalqning
turmush darajasi yuksalmoqda, mamlakat dadil qadamlar bilan strategik maqsad
— Yangi O'zbekistonni barpo etish sari bormoqda. Bu do'st va qo'shni, har qanday
sharoitda strategik sherik sifatida Xitoyni behad quvontiradi.

Joriy yil iyun oyida Ostonada bo'lib o'tgan uchrashuvimizda ikki mamlakatning har
tomonlama hamkorligi bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Xitoy va O'zbekiston
o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi reja
tuzildi. Siz bilan siyosiy o'zaro ishonchni uzluksiz chuqurlashtirish, bir-birimizni qat'iy
qo'llab-quvvatlash, rivojlanish strategiyalarining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash,
"Bir makon, bir yo'l"ni birgalikda sifatli barpo etish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga
oshirishga tayyorman.

O'zbekiston Respublikasiga kuch-qudrat va ravnaq, uning xalqiga baxt-saodat va
farovonlik tilayman.

Si SZINPIN,
Xitoy Xalq Respublikasi Raisi



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA

Hurmatli Prezident janoblari!

Amerika Qo'shma Shtatlari xalqi nomidan Sizga va O'zbekiston xalqiga
mamlakatingiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan eng ezgu
tilaklarimizni yo'llayman. Bu uning tarixi va boy madaniyatini eslash uchun
quvonchli sababdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatlarimiz o'rtasidagi jadal
strategik sheriklikka hissa qo'shadigan muhim islohotlarni davom ettirmoqda. Biz
umumiy manfaatlarimizni ilgari surish, jumladan, chegaralarimizni mustahkamlash,
ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni ko'paytirish, diniy erkinlik va mintaqaviy
barqarorlikni ta'minlash yo'lida birgalikda salmoqli ishlarni amalga oshirdik.

Qo'shma Shtatlar mavjud aloqalarni mustahkamlash va o'zaro manfaatli
hamkorlikning yangi imkoniyatlarini ochishga umid qilmoqda. Sizga va
fuqarolaringizga Mustaqillik bayrami munosabati bilan baxt-saodat va eng ezgu
tilaklarimni bildiraman.

Hurmat bilan,

Donald TRAMP,
Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti

(Davomi 2 va 3-betlarda).



MUSTAQILLIK BERGAN HUQUQ VA IMKONIYATLAR

XALQIMIZNING FAROVON HAYUTI, ORZU-UMIDLARI RO'YOBINING ASOSIY MANBAI

Mamlakatimizda mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yillik
shonli sanasi g'oyat ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda.
Poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tkazilgan
shodiyona va unda Prezidentimiz ishtirok etib, xalqimizni
qutlashi uning shukuhini yanada oshirdi.

Davlatimiz rahbari tabrigida ta'kidlaganidek, Yangi
O'zbekiston g'oyasi asosida boshlangan ulkan islohotlar

tufayli mustaqillik bergan huquq va erkinliklarni har bir
yurtdoshimiz o'z hayotida chuqur his qilib, bu imkoniyatlardan
keng foydalanmoqda.

Hayotning barcha jabhalarida beqiyos yutuqlar qo'lga
kiritilyapti. Ularda faol qatnashayotgan hamyurtlarimiz ertangi
kunga yuksak ishonch bilan yashamoqda.

4-sahifaga qarang.



SAMIMIY QUTLOVLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Qozogʻiston xalqi va shaxsan oʻz nomidan Sizni va barcha yurtdoshlaringizni Mustaqillik kuni bilan samimiy muborakkod etaman.

Ushbu tarixiy sana qardosh Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻlidan dadil, izchil rivojlanib borayotganining yorqin ramzidir. Qozogʻiston Sizning hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitda Yangi Oʻzbekistonnı barpo etishga qaratilgan chuqur oʻylangan, keng koʻlamli islohotlaringizni toʻliq qoʻllab-quvvatlaydi.

Sizning kuchli va obroʻli rahbarligingizda Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilish borasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi.

Qozogʻiston Oʻzbekistonning strategik sherigi va ishonchli ittifoqchisi sifatida mamlakatingiz bilan koʻp qirrali davlatlararo aloqalarni yanada chuqurlashtirishga alohida ahamiyat qaratadi.

Ishonchim komilki, Qozogʻiston – Oʻzbekiston munosabatlari bundan buyon ham qardosh xalqlarimiz farovonligi, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik manfaatlari yoʻlida koʻp asrlik doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik va oʻzaro qoʻllab-quvvatlash ruhida jadal rivojlanib boraveradi.

Fursatdan foydalanib, Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, davlatchilik faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh Oʻzbekiston xalqiga farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!
Sizni va Oʻzbekiston xalqini Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi bilan samimiy muborakkod etaman.

Mustaqillik har bir davlatning oʻz yoʻlini tanlashi va xalq farovonligi uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishi uchun imkoniyatdir. Oʻzbekiston bu imkoniyatdan unumli foydalanib, jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egallab kelayotgani quvonarlidir.

Bugungi kunda Oʻzbekiston barcha asosiy tarmoqlarda, ayniqsa, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida barqaror va ishonchli rivojlanmoqda.

Bu muvaffaqiyatlar Sizning boy tajribangiz va ajoyib yetakchiligingiz natijasidir.

Mamlakatlarimiz oʻrtasidagi strategik sheriklik barqaror rivojlanib borayotganini alohida qayd etmoqchiman.

Ishonchim komilki, qardosh xalqlarimiz oʻrtasida qaror topgan yaxshi qoʻshnichilik va doʻstona munosabatlar yangi bosqichga koʻtariladi, Qirgʻiziston bilan Oʻzbekistonning har tomonlama hamkorligi bundan buyon ham izchil rivojlanib boraveradi.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sogʻliq, bitmas-tuganmas kuch-gʻayrat, uzoq umr, oilaviy baxt-saodat, masʼuliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar, qardosh Oʻzbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Sadir JAPAROV,
Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Qadrlı Shavkat Miromonovich!
Mamlakatingiz milliy bayrami – Mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga va birodar Oʻzbekiston xalqiga samimiy tabriklarimiz va eng ezgu tilaklarimizni yoʻllash menga katta mamnuniyat bagʻishlaydi.

Oʻzbekiston oʻzining har tomonlama rivojlanish yoʻlida ulkan natijalarga erishib, xalqaro maydonda katta obroʻ-eʼtibor qozongani quvonarlidir.

Tojikiston eng yaqin qoʻshnisining yutuqlaridan xursand va unga oʻzining ishonchli hamkori sifatida qaraydi.

Biz Tojikiston va Oʻzbekiston oʻrtasidagi iliq, doʻstona, yaxshi qoʻshnichilik hamda sermazmun munosabatlarni qadrlaymiz va ularga alohida ahamiyat beramiz.

Oʻzbekiston bilan hamkorlikning izchil rivojlanib borayotgani Tojikiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlari orasida muhim oʻrin tutadi.

Mamlakatlarimiz oʻrtasidagi strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlari har tomonlama rivojlanayotgani va kengayib borayotganidan mamnunmiz.

Ishonchim komilki, umumiy chora-tadbirlar bilan barcha salohiyatli imkoniyatlarni toʻliq ishga solamiz va mamlakatlarimiz farovonligi yoʻlida oldimizga qoʻygan maqsadlarga erishamiz.

Biz, oʻz navbatida, xalqlarimiz farovonligi yoʻlida tomonlar hamkorligining ijobiy dinamikasini mustahkamlash uchun bundan buyon ham birgalikdagi saʼy-harakatlarni davom ettirishga tayyormiz.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sogʻliq, baxt-saodat va masʼuliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi zafarlar, birodar Oʻzbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va bardavom taraqqiyot tilayman.

Katta hurmat bilan,

**Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Turkmaniston xalqi va Hukumati nomidan, shuningdek, shaxsan oʻz nomimdan Sizga va Siz orqali qardosh Oʻzbekiston Respublikasi xalqiga mamlakatingiz Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni yoʻllash sharafiga muyassarman.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarida taraqqiyot va ravnaq yoʻlidan dadil bormoqda. Yaqin qoʻshnimizning yutuqlaridan xursandmiz.

Turkmaniston va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasidagi hozirgi ikki tomonlama munosabatlar konstruktiv va barqaror xususiyatga ega ekanini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman. Ular eng keng doiradagi yoʻnalishlar boʻyicha rivojlanmoqda. Birgalikdagi saʼy-harakatlarimiz bilan Turkmaniston – Oʻzbekiston qardoshlik munosabatlari xalqlarimiz farovonligi yoʻlida yanada rivojlanib, mustahkamlanib borishiga qatʼiy ishonaman.

Ushbu yoqimli imkoniyatdan foydalanib, Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sogʻliq, baxt-saodat va masʼuliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh Oʻzbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman!

Chuqur hurmat bilan,

**Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Mamlakatingiz Mustaqilligi kuni munosabati bilan Sizga va Siz orqali qardosh Oʻzbekiston xalqiga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni yoʻllayman.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan buyon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda ulkan muvaffaqiyatlarni qoʻlga kiritdi, xalqaro maydonda munosib obroʻ-eʼtibor qozondi, mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalarni hal etishda konstruktiv rol oʻynamoqda.

Yaqinda “Avaza” milliy sayyohlik zonasida “Turkmaniston – Ozarbayjon – Oʻzbekiston” oliy darajadagi uchrashuvi doirasida boʻlib oʻtgan uchrashuvimizni alohida mamnuniyat bilan eslayman. Unda tomonlarning mamlakatlarimiz oʻrtasidagi koʻp qirrali hamkorlikni izchil kengaytirish va mustahkamlashga intilishi yana bir bor tasdiqlandi.

Ushbu yoqimli imkoniyatdan foydalanib, Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, mustahkam sogʻliq, baxt-saodat va farovonlik, qardosh Oʻzbekiston Respublikasi xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, bardavom taraqqiyot va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

**Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,
Turkman xalqining milliy yetakchisi,
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Qadrlı qardoshim!

Oʻzbekiston Respublikasining milliy bayrami – Mustaqillik kuni munosabati bilan shaxsan oʻz nomimdan va Ozarbayjon xalqi nomidan Sizga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni yoʻllayman.

Bugun biz qardosh mamlakat sifatida mamlakatingiz Siz belgilab bergan Yangi Oʻzbekiston strategiyasi asosida jadal va har tomonlama rivojlanayotgani, barcha sohalarida taraqqiyotga erishilayotgani, iqtisodiy salohiyat mustahkamlanib, global miqyosda obroʻ-eʼtibor va oʻringiz yuksalib borayotganini quvunch bilan kuzatmoqdami. Oʻzbekiston erishayotgan barcha yutuqlar Sizning koʻp qirrali faoliyatingiz, uzoqni koʻzlagan siyosatingiz, Vatan va xalq oldidagi sharaflı xizmatıngiz natijasidir.

Ozarbayjon – Oʻzbekiston munosabatlari tili, tili va madaniyati musharak boʻlgan xalqlarimiz oʻrtasida qaror topgan yaxshi qardoshlik aloqalarini yaqqol aks ettiradi.

Davlatlararo munosabatlarning izchil rivojlanishida oʻzaro tashriflar va oliy darajadagi uchrashuvlar muhim oʻrin tutadi. Sizning iyul oyida Ozarbayjonga davlat tashrifingiz ikki tomonlama munosabatlarimizning ittifoqchilik xususiyatini yana bir bor tasdiqladi. Ishonchim komilki, Ozarbayjon va Oʻzbekiston oʻrtasidagi hamkorlikning keyingi yoʻnalishlari boʻyicha erishilgan muhim kelishuvlar, shuningdek, turli sohalarida, ayniqsa, iqtisodiy sheriklikni diversifikatsiya qilish boʻyicha imzolangan hujjatlar hamkorligimiz koʻlamini kengaytirish, ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Birgalikdagi saʼy-harakatlarimiz tufayli kun sayin yangi mazmun ila boyib borayotgan qardosh Oʻzbekiston bilan hamkorligimizni, ayniqsa, iqtisodiyot va savdo, energetika, investitsiyalar, qishloq xoʻjaligi, transport va logistika sohalaridagi aloqalarimizni bundan buyon ham kengaytirishga qatʼiy qaror qilganmiz. Oʻzaro anglashuv va ishonchning yuqori darajasi buning uchun qulay zamin yaratadi.

Ishonchim komilki, Ozarbayjon va Oʻzbekistonning

birodarligi bundan buyon ham barcha qoʻshma tashabbuslarimizni roʻyobga chiqarishda muhim oʻrin tutib, mamlakatlarimiz taraqqiyoti va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Hurmatli qardoshim!

Ushbu qutlugʻ ayyomda Sizni yana bir bor samimiy tabriklab, mustahkam sogʻliq, baxt-saodat, sharaflı va masʼuliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh oʻzbek xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Ilhom ALIYEV,
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Hurmatli Shavkat Miromonovich,

Sizni bosh bayramingiz – Oʻzbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakkod etaman.

Sizning rahbarligingizda mamlakatingiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yoʻlidan dadil bormoqda, mintaqaviy kun tartibidagi masalalarni hal etishda faol ishtirok etmoqda, jahon maydonidagi oʻrni mustahkamlamoqda.

Minsk va Toshkent birodarlik rishtalari bilan chambarchas bogʻlangan, turli yoʻnalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmogda. Sheriklikning bugungi darajasi bizga uchinchi mamlakatlar bozorlariga chiqish, koʻp tomonlama tuzilmalar doirasida bir-birimizni qoʻllab-quvvatlash imkonini bermogda.

Ishonchim komil, birgalikdagi saʼy-harakatlarimiz bilan ikki tomonlama konstruktiv munosabatlarni xalqlarimiz farovonligi yoʻlida koʻp asrlik doʻstlik va mustahkam ishonch ruhida izchil rivojlantrishda davom etamiz.

Sizga, muhtaram Shavkat Miromonovich, masʼuliyatli davlatchilik faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, Oʻzbekiston xalqiga esa farovonlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Aleksandr LUKASHENKO,
Belarus Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Muhtaram Prezident janoblari, aziz qardoshim!

Siz, Janobi Oliylariga va qardosh oʻzbek xalqiga Mustaqillik bayrami munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni izhor etaman.

Mustaqillikka erishilgan kundan bugunga qadar oʻtgan 34 yillik vaqt davomida doʻst va qardosh Oʻzbekiston, ayniqsa, Sizning rahnamoligingizda xalqaro mavqeini barqaror ravishda mustahkamlab, yanada farovon va yanada obod mamlakatga aylanib borayotganidan biz ham faxrlanamiz.

Mushtarak insoniy rishtalarimizdan quvvat oluvchi oʻziga xos munosabatlarimiz ikki tomonlama darajada va koʻp tomonlama platformalarda, ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida kundan-kunga rivojlanib borayotganidan mamnunmiz.

Oʻz navbatida, kelgusida oʻtkaziladigan Oliy darajadagi Oʻzbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashi yigʻilishi munosabati bilan goʻzal mamlakatingizga tashrif buyurishni intiqlik bilan kutmoqdaman.

Fursatdan foydalanib, Oʻzbekistonning Mustaqillik bayrami munosabati bilan yana bir bor samimiy qutlagan holda Siz, Janobi Oliylariga sihat-salomatlik va baxt-saodat, qardosh oʻzbek xalqiga esa omonlik va farovonlik tilab qolaman.

**Rejep Tayyip ERDOGʻAN,
Turkiya Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Janobi Oliylari, hurmatli birodarim!

Hindiston xalqi va Hukumati nomidan Sizga va doʻst Oʻzbekiston xalqiga mamlakatingiz Mustaqilligi kuni munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Oʻtgan yil oktyabr oyida Qozon shahrida boʻlib oʻtgan BRIKS sammiti doirasidagi sermahsul va konstruktiv uchrashuvimizni ilqlik bilan eslayman. Hindiston Oʻzbekiston bilan har tomonlama va oʻzaro manfaatli strategik sherikligimiz uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qilayotgan tarixiy va madaniy doʻstlik rishtalarini yuksak qadrlaydi. Yillar davomida hamkorligimiz barcha sohalarida, jumladan, mudofaa, savdo, iqtisodiyot, taʼlim, madaniyat va gumanitar aloqalarda kengayib bordi.

Mamlakatlarimiz oʻrtasidagi barqaror sheriklik bundan buyon ham xalqlarimiz manfaati yoʻlida mustahkamlanib borishiga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, Sizga mustahkam sogʻliq, muvaffaqiyatlar, Oʻzbekiston xalqiga esa farovonlik va yanada ravnaq tilayman.

Janobi Oliylari, Sizga boʻlgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.

**Narendra MODI,
Hindiston Respublikasi Bosh vaziri**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni munosabati bilan Siz, Janobi Oliylariga va doʻst oʻzbek xalqiga eng samimiy tabriklarimni, yurtingizga esa yanada taraqqiyot va farovonlik tilash menga katta mamnuniyat baxsh etadi.

Fursatdan foydalanib, Misr Arab Respublikasi Oʻzbekiston bilan oʻrnatgan oʻziga xos munosabatlarga katta ahamiyat qaratayotganini qayd etib, hamkorligimiz yoʻnalishlarini ikki doʻst xalqlarimiz manfaatlari yoʻlida turli sohalarida yanada mustahkamlashni davom ettirishga sodiqligimni taʼkidlayman.

Hurmatli Prezident Janobi Oliylari, Sizga sogʻliq-salomatlik va davlatchilik faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, doʻst Oʻzbekiston xalqiga esa bardavom farovonlik va ravnaq tilab qolaman.

Yuksak hurmat va ehtirom ila,

**Abdulfattoh as-SISI,
Misr Arab Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Siz, Janobi Oliylarini, doʻst va qardosh Oʻzbekiston Respublikasi xalqini mamlakatingiz Mustaqillik kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Madaniy musharaklik, oliy martabali delegatsiyalar almashinuvi oʻzaro aloqalarimizni kengaytirish va davom ettirishda muhim rol oʻynadi. Umid qilamanki, birgalikdagi saʼy-harakatlar natijasida biz oʻzaro manfaatlarga mos ravishda munosabatlarining tobora kengayib borayotganiga, mintaqaviy va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni rivojlantirishga guvoh boʻlamiz.

Alloh taolodan Janobi Oliylariga sogʻliq va muvaffaqiyatlar, Oʻzbekiston Respublikasi xalqiga esa farovonlik va baxt-saodat tilayman.

**Masʼud PEZESHKIYON,
Eron Islom Respublikasi Prezidenti**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Janobi Oliylari!

Sizni va birodar Oʻzbekiston Respublikasi xalqini qutlugʻ bayram – Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakkod etaman.

Pokiston va Oʻzbekistonnı azaldan musharak eʼtiqod, tarix, madaniyat va merosga ega birodarlik rishtalari bogʻlab turadi. Ushbu chuqur aloqalar har ikki tomonning dono rahbarligi va qatʼiy sadoqati tufayli yangicha tus olayotganini kuzatish biz uchun alohida mamnuniyat manbai hisoblanadi.

Yaqinda mamlakatlarimiz munosabatlari tarixiy bosqichga koʻtarilib, muhim mexanizm – oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashi tuzildi. Ushbu yutuqdan kelib chiqib, koʻp yillik doʻstligimizni oʻzaro manfaatlı strategik va koʻp qirralı sheriklik darajasiga koʻtarishda Siz bilan yaqindan hamkorlik qilishga umid qilaman.

Fursatdan foydalanib, Sizga mustahkam sogʻliq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, Oʻzbekistondagi birodarlarimizga esa bardavom tinchlik, taraqqiyot va ravnaq tilayman.

Janobi Oliylari, Sizga boʻlgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.

**Shahboz SHARIF,
Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri**



**OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Muhtaram Prezident janoblari!

Sizni va Oʻzbekiston xalqini milliy bayram – Oʻzbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bilan samimiy muborakkod etishga ijozat bergaysiz.

Joriy yil 24-iyul kuni boʻlib oʻtgan telefon orqali muloqotimizda mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish borasidagi intilishimiz qatʼiy ekanini yana bir bor tasdiqlaganimizni mamnuniyat bilan taʼkidlayman.

Ishonchim komilki, bunday oʻzaro anglashuv, shuningdek, Koreya Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasida koʻp yillar davomida shakllangan mustahkam ishonch tufayli hamkorligimizning “Alohida strategik sheriklik” maqomi yanada mustahkamlanadi. Faol almashinuvlar xalqlarimiz oʻrtasidagi doʻstlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga aminman.

Kelgusi yilda Koreya Respublikasida oʻtkazilishi rejalashtirilgan “Koreya – Markaziy Osiyo” sammiti hamda boshqa xalqaro tadbirlar doirasida oʻzaro manfaatlı va doʻstona hamkorligimizni yanada mustahkamlash boʻyicha sermazmun va samarali muloqot oʻtkazish uchun Siz, Prezident janoblari bilan shaxsan uchrashish imkoniyatini intiqlik bilan kutmoqdaman.

Oʻzbekiston Respublikasiga tinchlik va barqaror taraqqiyot, Sizga, muhtaram Prezident, mustahkam sogʻliq, Oʻzbekiston xalqiga baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Hurmat bilan,

**Li Chje MYON,
Koreya Respublikasi Prezidenti**

(Davomi 3-betda).



SAMIMIY QUTLOVLAR

(Davomi. Boshlanishi 1 va 2-betlarda).



OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Hurmatli Prezident janoblari!

Yevropa Ittifoqi nomidan Sizga va Oʻzbekiston xalqiga Oʻzbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni yoʻllamoqchiman.

Bu sana nafaqat mamlakatingiz suvereniteti bayrami, balki xalqingiz matonati va intilishlaridan dalolatdir. U Oʻzbekiston erishgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va mamlakatingiz oʻrtasida oʻrnatilgan mustahkam doʻstona aloqalarni eʼtirof etish imkonini beradi.

Bizning sherikligimiz, shubhasiz, yangi bosqichga koʻtarildi, barcha sohalarida, shu jumladan, Sizning yetakchiligingiz ostida semahsul va koʻp qirrali hamkorlik bilan ajralib turadi. Joriy yil aprel oyida Samarqandda “Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo” birinchi sammiti doirasida boʻlib oʻtgan uchrashuvimiz, shuningdek, oʻzbek xalqining mehmondoʻstligini his etish baxtiga muvassar boʻlganim haqida ajoyib xotiralar saqlanib qolgan.

Siz bilan 2025-yil 24-oktyabr kuni Bryusselda boʻlib oʻtadigan uchrashuvni intiqlik bilan kutaman, u yerda Yevropa Ittifoqi va Oʻzbekiston oʻrtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik oʻgʻrisidagi bitimning imzolanishi munosabati bilan fikr almashishni davom ettirish imkoniga ega boʻlamiz.

Fursatdan foydalanib, Sizga, Janobi Oliyleri, yana bir bor yuksak ehtirimimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Samimiyat ila,

Antoniu KOSHTA, Yevropa kengashi Prezidenti



OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Prezident janoblari!

Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga va oʻzbek xalqiga samimiy tabriklarimni yoʻllayman.

Davlatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlar mustahkam sheriklik xususiyatiga ega. Oʻtgan yili ham ular rivojlanishda davom etganini taʼkidlashdan mamnunman. Germaniyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik mintaqaviy sherikligi, shuningdek, imzolangan Migratsiya va harakatlanish sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim ikki tomonlama hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish yoʻlida yangi yoʻnalishlarni belgilab berdi.

Rahbarligingizda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatida Sizga katta muvaffaqiyatlar tilayman va Germaniya bundan buyon ham ishonchli hamkor sifatida Sizni qoʻllab-quvvatlashini ishonitirib aytaman. Barqaror, farovon va demokratik Oʻzbekiston butun mintaqaga uchun muhim ahamiyatga ega.

Prezident janoblari, mening eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz, Oʻzbekiston xalqiga esa erkinlik, xavfsizlik va farovonlikka asoslangan tinch kelajak tilayman.

Frank-Valter SHTAYNMAYER, Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti



OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANABI OLIYLARIGA

Prezident janoblari!

Mustaqillik bayrami munosabati bilan shaxsan oʻz nomimdan va Italiya Respublikasi nomidan Sizni samimiy muborakkobd etishga ijozat bergaysiz.

Mamlakatlarimiz oʻrtasidagi strategik hamkorlikni kengaytirish oʻzaro manfaatlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ishonchim komilki, bu jarayon turli sohalarini qamrab olib, boʻlib oʻtgan oliy darajadagi samarali uchrashuvlarda erishilgan natijalarga yangi surʼat bagʻishlaydi va koʻplab qoʻshma loyihalarda oʻz ifodasini topadi.

Toshkent va Rim oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli ikki tomonlama muloqot mintaqaviy hamkorlik orqali ham yanada rivojlanmoqda. Bugungi kunda “Italiya – Markaziy Osiyo” formati tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni taʼminlash uchun oʻziga xos maydon boʻlib xizmat qilmoqda.

Umid qilamanki, mamlakatingizning Yevropa Ittifoqi bilan tobora chuqurlashib borayotgan munosabatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan tamoyillarga sodiqlik, xalqaro tartib meʼyorlari va qoidalariga rioya qilish bilan

birgalikda ushbu yuksak maqsadlarga erishishga olib keladi. Fursatdan foydalanib, Sizga va doʻst Oʻzbekiston xalqiga yana bir bor farovonlik va ravnaq tilayman.

Serjo MATTARELLA, Italiya Respublikasi Prezidenti

Quyidagilar ham oʻz tabriklarini yoʻllagan:

Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud, Saudiya Arabistoni Valiahdi, Bosh vaziri Muhammad ibn Salmon Ol Saud, Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Asif Ali Zardariy, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri oʻrinbosari, Prezident Administratsiyasi rahbari Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon, Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev, Vengriya Prezidenti Tamash Shuyok, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Irlandiya Respublikasi Prezidenti Maykl Xiggins, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar, Slovakiya Respublikasi Prezidenti Peter Pellegrini, Latviya Respublikasi Prezidenti Edgars Rinkevichs, Chernogoriya Respublikasi Prezidenti Yakov Milatovich,

Chexiya Respublikasi Prezidenti Petr Pavel, Shveysariya Konfederatsiyasi Prezidenti Karin Keller-Zutter, Estoniya Respublikasi Prezidenti Alar Karis, Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili, Bosniya va Gersegovina Prezidiumi Raisi Jelko Komshich, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Qirolli Charlz III, Yaponiya Imperatori Naruxito, Belgiyaliklar Qirolli Filipp, Ispaniya Qirolli Filipp VI, Marokash Podshohi Muhammad VI, Kambojda Podshohi Norodom Siamoni, Moʻgʻuliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, Singapur Respublikasi Prezidenti Tarmen Shanmugaratnam, Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Prezidenti Liong Kiong, Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim, Tailand Podshohligi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Pxumtxam Vechayachay, Falastin Davlati Prezidenti Mahmud Abbas, Afgʻoniston Bosh vaziri Muhammad Hasan Ohund, Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Nurlanbek Yermekbayev, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi bosh kotibi Sergey Lebedev, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Asad Xon, Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Husayn Ibroxim Toha, Islom dunyosi taʼlim, fan va madaniyat tashkiloti bosh direktori Salim al-Malik, BMT Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti bosh direktori Syuy Dunyuo.

Qutlovlar kelishda davom etmoqda.

OʻZBEKISTON PARLAMENTI DELEGATSIYASI BELARUS RESPUBLIKASIGA BORADI

2-3-sentyabr kunlari Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi Oʻzbekiston delegatsiyasining Belarus Respublikasiga rasmiy tashrfi amalga oshiriladi.

Tashrif

Tashrif chogʻida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova bilan uchrashuvi oʻtkazildi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi oʻrtasida hamkorlik boʻyicha komissiyaning ilk yigʻilishi, mahalliy vakillik organlari vakillarining uchrashuvi hamda yosh parlament aʼzolari forumi ham boʻlib oʻtadi.

Tashrif doirasida Oʻzbekiston – Belarus

tadbirkor ayollarning uchinchi biznes forumi oʻtkaziladi. Forum doirasidagi 7 ta mavzu boʻyicha boʻlib oʻtadigan seksiya yigʻilishlarida turli sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari va investitsiya loyihalarini muhokama qilish, tajriba almashish hamda ikki tomonlama hujjatlarni imzolash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Vitebsk shahrida tashkil etiladigan “Made in Uzbekistan” milliy koʻrgazmasida oziq-ovqat, farmatsevtika, yengil sanoat, turizm, hunarmandchilik va elektronika kabi sohalarida faoliyat yuritayotgan 70 dan ziyod tadbirkor ayollar oʻz mahsulotlari hamda xizmatlarini namoyish qiladi.

«Xalq soʻzi».

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

YOʻL HARAKATI XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASH BOʻYICHA TAVSIYALAR BERILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish, yoʻl harakatini toʻgʻri tashkil etish orqali tirbandliklar va avtohalokatlarni kamaytirish masalalari yuzasidan hududlarda oʻtkazilgan oʻrganishlar yakunlariga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazdi.

Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, aholi sonining oʻsishi natijasida jamoat transportiga boʻlgan talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Bu esa jamoat transporti xizmati sifatini yaxshilash, madaniyatini yuksaltirish, uni bugungi davr va sharoitga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz shaharlarida jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yoʻlovchilarga sifatlil va xavfsiz xizmatlar koʻrsatish, transport infratuzilmasini, harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega boʻlgan zamonaviy avtobuslar bilan toʻldirish, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash hamda piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yoʻllarda yoʻnalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yoʻlaklar tashkil etildi. Bu, oʻz navbatida, jamoat transporti qatnovlarining jadallashuvi, yoʻlovchilarning oʻz manziliga tezroq yetib olishini taʼminlashga xizmat

qilmoqda. Qolaversa, hududlarga jamoat transporti uchun yangi va zamonaviy avtobuslar, metro vagonlari xarid qilinib, foydalanishga topshirilayotir.

Yigʻilishda Transport vazirligi vakillari ishtirokida jamoat transportini rivojlantirish, avtohalokatlar va tirbandliklarni kamaytirish masalalari muhokama qilindi. Vazirlik tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi istiqbolli rejarlar haqida axborot berildi.

Deputatlar transport tizimiga yuklama tushiradigan qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bogʻliq holatlar, yoʻllarda yoʻnalishli transport vositalari (avtobus) uchun alohida yoʻlak ajratish, transport oʻtish bogʻlamlarini barpo etish, tirbandliklarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yechimlarning kamligi sabablari bilan qiziqdi. Mutasaddilar koʻtarilgan savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib oʻtdi.

Yigʻilishda Namangan shahrida jamoat transportini rivojlantirish va yoʻl harakati

xavfsizligini taʼminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham atroflicha maʼlumot berildi.

Maʼlum qilinganidek, bugungi kunda shaharda kuniga 90 mingdan ortiq yoʻlovchilar 220 ta jamoat transporti orqali tashilmoqda. Joriy yilda 66 dona yangi va zamonaviy avtobus brutto-kontrakt tizimida foydalanish uchun olib kelindi. Keyingi ikki yilda shahardagi 3 ta koʻchada avtobus yoʻlaklari tashkil etildi.

Deputatlar ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga, tumanlardan kirib kelayotgan yoʻlovchi tashish transportlarini shahar ichidagi avtobus yoʻnalishlari bilan bogʻlaydigan yangi bosh bekatlar, zamonaviy “smart bekat”lar, avtoturargohlar qurish, yoʻlovchi tashish faoliyati bilan shugʻullanuvchi subyektlarga avtobuslar xarid qilishda imtiyozlar yaratish lozimligini taʼkidlashdi.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish, yoʻl harakatini toʻgʻri tashkil qilib, tirbandliklar va avtohalokatlarni kamaytirish boʻyicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

«Xalq soʻzi».

Mustaqillikning 34 yilligiga

INSON QADRI — OLIY MEZON

Mustaqillik kuni – bu faqatgina tarixiy sana emas, u xalqning erki, qadri, salohiyati va oʻz taqdiriga egalik qilish huquqini anglatadi. Mustaqil davlatning eng ulugʻ boyligi esa inson huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlari taʼminlangan jamiyatdir.

Oʻzbekiston Respublikasining xalqi suveren va davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekani Konstitutsiyada mustahkamlab qoʻyilgan. Unga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi hamda qaysi dinga mansubligi va eʼtiqodidan qatʼi nazar, teng va bir xil huquqlarga ega.

Mustaqillikning keyingi sakkiz yilida ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha qonun hujjatlarida inson huquqlari ustuvorligi taʼminlandi.

Inson huquqlari boʻyicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlari himoyasi masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borildi.

Oʻzbekiston Respublikasi inson huquqlari boʻyicha xalqaro hujjatlar, jumladan, BMT shartnomalari, fakultativ protokoliga qoʻshilgan.



Inson huquqlari samarali muhofaza etilishida yangi tahrirdagi Konstitutsiya muhim oʻrin tutdi. Chunki unda inson huquqlari himoyasi yanada kengaytirildi, uni taʼminlash mexanizmi kuchaytirildi. Bu borada davlatning masʼuliyati oshirildi.

Davlat tomonidan insonga nisbatan qoʻllaniladigan huquqiy taʼsir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli boʻlishi kerakligi mustahkamlandi. Inson bilan davlat organlarining oʻzaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi

barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilab qoʻyildi.

Avvalgi Konstitutsiyada inson huquqlari uchun 23 modda ajratilgan boʻlsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bu 34 taga yetkazildi. Va oldinlari umuman koʻzda tutilmagan, lekin inson huquqlarini taʼminlashda muhim boʻlgan bir qator oʻzgartirishlar kiritildiki, bu Yangi Oʻzbekistonda inson qadrining qay darajada muhim va yuqori ekanligini yana bir bor isbotlab berdi.

Xususan, hyech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga yoki qamoqqa olinishi, ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi yoxud uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emasligi, ushlab chogʻida tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turish sabablari tushuntirilishi shartligi, aybsizlik prezumpsiyasi aniq belgilangani, aybsizlikka oid barcha shubhalar, ularni bartaraf etish imkoniyati tugagan boʻlsa, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi qayd etildi.

Agar shaxsning oʻz aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil boʻlsa, u aybdor deb topilishi va jazolanishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar oʻziga nisbatan insoniy muomalada boʻlinishi hamda inson shaxsiga xos boʻlgan shaʼni hamda qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos boʻlishi mumkin emas.

Asosiy Qonunning 55-moddasi bilan har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekani mustahkamlandi.

Konstitutsiya agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib boʻlingan boʻlsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish huquqini ham beradi.

Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi aʼzosi.

AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARDA XALQ MANFAATLARI USTUVOR

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi koʻtarinki kayfiyatda, yuksak darajada nishonlandi. Ortga nazar tashlab, oʻtgan yillarda yurtimizda barcha sohada keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilganiga, muhim oʻzgarishlar aholi turmushida chuqur aks etganiga amin boʻlmoqdamiz. Xalqimiz hayotidagi ijobiy oʻzgarishlar, turli sohalarida qoʻlga kiritilayotgan yutuqlar zamirida esa ulkan mehnat, fidoyilik va oqilona siyosat mujassam.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning farovon kelajagi uchun zamin yaratish, eng avvalo, taʼlim, tibbiyot, iqtisodiyot, sport, madaniyat, huquq, mudofaa, tashqi siyosat kabi sohalarida puxta oʻylangan islohotlarga bogʻliq. Ayniqsa, taʼlim sohasini rivojlantirish borasida roʻyobga chiqarilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalari ertangi kunimiz uchun mustahkam poydevor qoʻylayotganini tasdiqlaydi.

Xususan, shahar va qishloqlarda yangi zamonaviy maktabgacha taʼlim



tashkilotlari bunyod etilib, unga qamrovning oshiriliishi, pedagog kadrlarning ijtimoiy-huquqiy muhofazasini kuchaytirish choralari koʻrilayotgani, oliy taʼlim sohasida xususiy sektorga keng imkoniyatlar berilishi singari muhim qadamlar

millat kelajagini yaxshilashga qaratilgan. Eʼtirof etish joizki, taʼlim sohasiga yuksak eʼtibor yurtimiz yoshlarining ilimga boʻlgan intilishlarini yanada ragʻbatlantirimoqda. Natijada ular xalqaro fan olimpiadalarida, yuqori natijalarga erishib, dunyoning top universitetlarini zabt etmoqda.

Albatta, bu yutuqlar zamirida ulkan mehnat, katta moliyaviy resurslar turibdi. Lekin asl sabab – mazkur soha rivojiga koʻrsatilayotgan eʼtiborda. Milliy statistika qoʻmitasi bergan maʼlumotga koʻra, birgina shu yilning yanvar – iyun oylarida mamlakatimizda 68 ta maktab ishga tushirilgan.

Eng foydalil investitsiya taʼlimga yoʻnaltilgan investitsiya deganlaridek, bilim maskanlarining qurilishi, jihozlanishi va taʼlim uchun sarflanayotgan mablagʻlar yurt kelajagi uchun tikilgan muhim sarmoyadir.

Oʻzbekistonni dunyoga tanitayotgan yana bir soha bu hyech mubolagʻasiz – sport. Mamlakatimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini esa barchamiz koʻrib, his etib turibmiz. Va tabiiyki, natijalardan quvonchimiz bisyor.

Ayniqsa, Olimpiya va paralimpiyachilarimiz qoʻlga kiritgan medallar yurtimiz dovruqʻini taratish barobarida sogʻlom turmush tarzini targʻib etish va sport bilan muntazam shugʻullanuvchilar safining kengayishiga sabab boʻldi. Futbol boʻyicha mamlakatimiz milliy terma jamoasini mundialda koʻrish orzusining ushlangani esa barchamizga birdek quvonch ulashdi. Dunyo eʼtiborini yana bir Oʻzbekiston degan davlatga qaratdi.

Shaharu qishloqlarimizni yashil makonga aylantirish, yoshlarimizni oliy taʼlim bilan qamrab olish,

aholining bandligini taʼminlash, kommunal xizmat koʻrsatish sohalarida professional servisni joriy etish, qonunchilik sohasida mahalliy Kengashlar vakolatini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarida qonun talablariga rioya qilinishi borasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi harakatlar ham islohotlarda xalq manfaatlari ustuvorligi bosh maqsad etib belgilanganidan dalolat.

Jonajon yurtimizda roʻy berayotgan bu oʻzgarishlardan faxr tuyasan, kishi. Shuning barobarida, shu yurt farzandi, islohotlar ishtirokchisi sifatida har birimiz Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun oʻz hissamizni qoʻshishga burchli ekanimizni ham unutmasligimiz darkor.

Azamat PARDAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MUSTAQILLIK BERGAN HUQUQ VA IMKONIYATLAR

XALQIMIZNING FAROVON HAYUTI, ORZU-UMIDLARI RO'YOBINING ASOSIY MANBAI



Bag'dodni Bog'i eramga aylantiramiz

Obidaxon RAHIMOVA,
Bag'dod tumanidagi «Bog'i eram Bag'dod»
fermer xo'jaligi rahbari:

— Mustaqillik o'zimizni, iqtidor va qobiliyatimizni namoyon etish imkonini berdi. Bu ham faxr, ham shijoat bag'ishlaydi.

Har tong otamdan qolgan dalalarga yo'l olaman. Bag'dodning 50 gektar lalmi yerida paxta va g'alla yetishtiramiz. Bu yil tajriba tariqasida 6 gektar maydonda Xitoy paxta navini parvarishladik. Har gektar yerdan kamida 50 sentnerdan hosil olishni maqsad qilganmiz. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida oliy ta'lim muassasalarini tugatgan farzandlarim — Jasurbek va Jamshidbek ham qonotimga kirgan. Ularning tavsiyasi bilan yaqin yillarda to'liq shu paxta navini ekishni rejalashtiryapmiz.

Dehqonchilikda baraka bor. Faqat paxta, g'alladan keladigan daromadga qarab qolganimiz yo'q. Asalarichilik, chorvachilik xo'jaligimizning yana bir sardaromad tarmoqlari hisoblanadi. Ro'zg'or uchun zarur bo'ladigan barcha mevasabzavotni to'liq o'z bog'imizda yetishtiramiz.

Mahalladoshlarim ham fermer ayol, ham namunali oila bekasi sifatida hurmat qiladi. O'zim yashaydigan



“Chekmirzaobod” MFYda “Oqila ayollar” harakati rahbariman. Ba'zan arzimagan kelishmovchiliklar tufayli ajrim yerdan kamida 50 sentnerdan hosil olishni maqsad qilganmiz. Qishloq xo'jaligi yo'nalishida oliy ta'lim muassasalarini tugatgan farzandlarim — Jasurbek va Jamshidbek ham qonotimga kirgan. Ularning tavsiyasi bilan yaqin yillarda to'liq shu paxta navini ekishni rejalashtiryapmiz.

Insomning qo'li va ko'ngli ochiq bo'lsa, ishlari ham yurishadi. Mamlakatimizdagi hayotbaxsh islohotlar tufayli keyingi yillarda xo'jaligimizni yanada gullab-yashnatadigan bir necha zamonaviy texnikalar sotib oldik. Hozir moddiy-texnika bazamiz ancha yaxshilandi. Endi chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga harakat qilaymiz. Fermer xo'jaligimizda ko'plab xotin-qizlar ishlaydi. Bugun jamiyatimizda ayollarga ko'rsatilayotgan ehtirom va e'tibor meni yanada g'ayrat bilan ishlashga, yangi g'oyalarni tatbiq etishga undamoqda.

Muallimlik — eng buyuk maqom

Xurshida ABDULHAYEVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi 58-maktab o'qituvchisi:



ishga keldim. Bundan olti yil avval, uning qurilganiga oltmish yil to'lgan chog'da eskirgan imoratlarining bir qismi ta'mirdan chiqarildi. Ta'lim sifati ko'tarildi. Bu oliy o'quv yurtiga o'qishga kirayotgan bitiruvchilar soni ortayotganida ko'rinadi. Joriy yilda yigirmaga yaqin talabalikka erishganlar safida yurtimizning nufuzli oliygo'harlarga kirganlar ham bor.

Bugun katta hayot ostonasida turibman, zimmamga olgan vazifa ham yengil emas. Albatta, bunday pallada kechagina mutaxassislik diplomini olgan har bir yoshning ko'nglidan ming bir o'y kechishi tabiiy. Zero, o'qituvchining yumushi faqat bilim berishning o'ziga emas, balki o'sib kelayotgan avlodning qalbiga Vatani tuyg'usi, ona yurtga mehri-muhabbat urug'larini ekish, insonparvar, ma'rifatli inson qilib tarbiyalashdir. Ayni jihatdan olganda o'zimga bo'lgan ishonchim olg'a yetaklaydi. Boisi yonimda suyanch tog'larim — mehribon ustozlarim turibdi.

Yaqinda tuman markazidan yigirma chaqirim olisdim o'zim o'qigan qishloq maktabiga

Endi shifo istab xorijga borish shart emas

Abdulaziz MUSTAFOQULOV,
Shirin shahar tibbiyot birlashmasi xirurgiya
bo'limi xirurg-shifokori:

— 2014-yilda tibbiyot oliy o'quv yurti talabasi paytimda otam yurak xastaligi bilan olamdan o'tdi. Buni bejiz eslamadim: o'sha paytlarda otamning dardiga xorijda davo borligini bilardim. Ammo o'sha uzoq-uzoqlardagi shifoxonalarga borish-kelish, tibbiy xizmat haqqi

uchun anchamuncha pul kerak bo'lar, bunday katta xarajatga hammaning ham qurbi yetmasdi. Endilikda ko'pchilikni qiynagan bu muammo tarixda qoldi.



Shukrki, bugun yurtimiz shifokorlari faqat padari buzrukvorimni bu dunyodan olib ketgan kasallik emas, boshqa o'nlab tashxislar bo'yicha ham murakkab texnologiyali jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirib, bemorlarga shifo baxsh etmoqda. Xususan, Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyat bo'yicha yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari 2023-yilda 2 300

tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni yana 500 taga ortib, 2 800 taga yetgan.

E'tiborlisi, bunday jarrohlik amaliyotlari chekka hududlardagi tibbiyot muassasalarida ham bajarilmoqda. Jumladan, kamina faoliyat yuritayotgan Shirin shahar tibbiyot birlashmasida o'ndan ortiq turdagi yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotir.

Yana bir jihat, shifoxonamizda faqat Shirin shahridan emas, boshqa hududlardan va hatto qo'shni davlatlardan kelgan bemorlarni ham yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari orqali davolayapmiz. Bugun ko'plab kasalliklarga davo topish uchun viloyat markaziga, poytaxtga yoki xorijga borish shart emas. Albatta, bularning hammasi so'nggi yillarda tibbiyot sohasida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar samarasidir.

«Menga najot farishtasidek qarashadi»

Niso TURDIYEVA,
Samarqand viloyati bolalar ko'p
tarmoqli tibbiyot markazi bo'lim
mudiri:

— Kardioxirurgman, Rossiya Federatsiyasining Moskva shahridagi Bakulev nomidagi kardiologiya tibbiyot markazida qariyb o'n yil faoliyat yuritdim. 2019-yildan buyon Samarqanddaman. Hozirda viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bolalar kardioxirurgiyasi bo'limi mudiri bo'lib faoliyat ko'rsatayapman. Bemorlar va ularning yaqinlari doim menga najot farishtasidek qarashadi.

Kardioxirurglik markazida

ishlaganimda O'zbekistondan kelgan bemorlarni ko'p ko'radim. Bemor bolalarning ahvoli og'ir, moddiy sharoiti haminqadar edi. Ularni o'zimizda operatsiya qilsa bo'ladi-ku, deb o'ylardim. Yurtga qaytishimning asosiy sababi ham shu bo'lgan. Xorijda katta maosh olardim, yurtga qaytayotganimda hamkasblarim hayron qolgan. Hozir bundan hych ham afsuslanmayman. Chunki o'z Vatanimda tibbiyot rivojiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shayapman. Yurtimizda ham tibbiyot rivojlanayotgan kunlar keldi. Birgina



Samarqand viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining o'zida yiliga mingdan ziyod zamonaviy kardioxirurglik amaliyotlari bajarilmoqda. Natijada yuragida nuqsoni bor bemorlar bizning jamoamiz ko'magi bilan sog'lom hayotga qaytyapti. Bundan g'ururlanamiz.

Soha rivoji yo'lida qilayotgan kamtarona mehnatim ham qadr topmoqda. 2021-yilda Prezidentimiz tomonidan II darajali “Salomatlik” ordeni bilan taqdirlandim. Mukofot — mas'uliyat, degani. Shunga loyiq bo'lishga harakat qilaman.

Dunyoga tinchlik kerak

Farida AKBAROVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi
tasarrufidagi «Bo'ston sanatoriysi» mas'uliyati
cheklangan jamiyati direktori, xalq
deputatlari Toshkent viloyati Kengashi
deputati:

— Prezidentimiz tabrigida “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu tamoilga asoslangan Yangi O'zbekiston g'oyasi amalda qudratli harakatga aylanganini bejiz ta'kidlagani yo'q. Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan insonni qadrlashga qaratilgan islohotlar nafaqat yurtimizda, balki dunyoning

bir qancha nuqtalarida ham yuraklarga hayotdan rozilik, minnatdorlik olib kirayotganini hayajonsiz gapirmay bo'lmaydi. Birgina sanatoriymizda qanchadan-qancha beorom qalblarga taskin berildi. Minglab odamlar urush olovlari ichidan



oromgohimizga olib kelinib, ularga insonparvarlik va bag'rikenglik ko'rsatildi. Keyingi yillarda bir necha bor amalga oshirilgan “Mehri” yordamlarini eslaylik. Ko'rsatilgan g'amxo'rlik uchun yuzlab insonlar minnatdorlik bilan duo qilmoqda. Ular boshlarida bomba portlab, quloqlari oldidan o'q vizillab o'tib turgan vaziyatdan tinch va osuda hayotga qaytdi.

Falastinlik onalar va bolalarga ko'rsatilayotgan saxovat hamda g'amxo'rlikni butun dunyo tan olib

turibdi. Ular ham tabassum qilishga haqli. Mana, to'qqiz oydirki, halovatda hayot kechirmoqda. Vatanimizda ularga barcha sharoit yaratib berilmoqda. Bu tinchliksevar O'zbekistonning butun jahonga qarata “Dunyoga tinchlik kerak!” deya aytgan da'vatidir.

Bir mayizni qirq bo'lib yegan xalqmiz. Bag'rikenglik, insonparvarlik qon-qonimizga singib ketgan. “Bo'ston” sanatoriysida bu qadriyatlar millatimiz sha'ni kabi e'zoz topishi, bunga hych kim befarq bo'lmisligiga harakat qilamiz.

Oilalarga yelkadosh bo'lib

Matlubaxon G'ANIYEVA,
Andijon tumanidagi Orol mahallasi raisi:

— Bugungi kunda yurtimizda mahalla institutini mustahkamlash, aholiga qulay va samarali shart-sharoit yaratish maqsadida



ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday ezgu ishlar samarasi o'laroq, Andijon tumanidagi Orol mahallasi ham farovon turmushga yuz tutmoqda. Mahalla faollari, nuroniylar, qalbida olov yonib turgan yoshlar bilan birgalikda hududimizni eng namunali manzillardan biriga aylantirishga harakat qilaymiz. Bir paytlar kechki vaqtda zulmatga aylanadigan mahallamiz ko'chalari bugun charog'on, yo'llarimiz esa ravon bo'ldi. Mahalla tinch, oilalar baxtiyor, hayotimiz farovon bo'lsa, bayramlar ham yarashadi. Mustaqillikning o'ttiz to'rt yillik shodiyonasini nishonlayotgan

xonadonlarda ana shu xotirjamlik va ahillik bor.

Ayni paytda mahallamizda salkam uch ming nafar aholi yashaydi. Chekka hududda bo'lganimiz bois ishsizlik masalasi biroz qiynab kelayotgandi, tomorqalardan unumli foydalanishga kirishdik. Natijada shu yilning o'zida 97 nafar qo'shnimiz o'zini o'zi band qilish orqali kambag'allik safidan chiqarildi. 65 nafar aholi doimiy ish joyiga ega bo'ldi. Yangidan qurib bitkazilgan maktab mahallamiz hayotiga o'zgacha fayz olib kirdi. Zamonaviy sinfxonalarda bolalarimiz ilm olishi, orzularini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Mehnatkash, fidoyi va samimiy mahalladoshlarimni birliktirib, shunday ezgu ishlarga chog'laganim uchun Prezidentimizning Farmoniga asosan “Elti-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlanganim nafaqat menga, balki qishlog'imiz ahli uchun ham haqiqiy bayram sovg'asi bo'ldi. Yurtimizning olis qishlog'i va uning fidoyilari davlatimiz rahbarining e'tiboriga tushganidan mamnunmiz.

Yangi hayot nafasi

Akmaljon QO'CHQOROV,
To'rtko'l tumani hokimining
Markazobod mahallasidagi
yordamchisi:

— Bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, odamlar turmush darajasini oshirish umummilliy harakatga aylandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan amaliyotga jadal tatbiq etilayotgan “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi eng olisidagi ovullargacha kirib borib, har bir mahalla, kambag'allikdan tushkunlikka tushgan oilalarga



yangi hayot nafasini olib kirmoqda.

Hokim yordamchisi sifatida “mahalla yetiligi” vakillari, faollar, ziyolilar, nuroniylar bilan birga jamiyat hayoti, mamlakat taqdiriga daxldor jarayonlarda bevosita ishtirok etib

kelmoqdaman. Ishsizlar sonini kamaytirish borasidagi ishlarni natijasida joriy yilda mahalladagi 51 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi.

“Loyiha menejeri” sifatida Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi “Yuksalish” va “Navroz”, Xatirchi tumanidagi “Oq oltin”, “Ko'ksaroy” ovul fuqarolar yig'inlariga mas'ul qilinganman. Bu hududlarda ham “mahalla

yetiligi” bilan hamkorlikda aholi bandligini ta'minlash, oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni belgilab oldik. Mazkur loyihalar asosida 146 ta oila qamrab olinib, ularning 292 nafar a'zosi bandligini ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Bugungi kunda issiqxonada limon va boshqa sitrus mevalar, pomidor, bodring, ko'katlar

yetishtirish yo'nalishlarida ham mahallalardagi aholining bandligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami ishlar izchil davom etmoqda. E'tiborlisi, ikkita lavozimda ham bitta maqsad sari — aholining turmush farovonligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash orqali hududlarda kambag'allikni qisqartirishga kuch-g'ayratimizni safarbar etmoqdamiz.

«Xalq so'zi».

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir N. Ostonoev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.27 Topshirildi — 01.40

1 2 3 4 5 6